

HUNARMANDCHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA GERMANIYA TAJIRIBASI VA UNI MAMLAKATIMIZDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

Bektosheva Umida Hamza qizi

Qarshi davlat texnika universiteti doktoranti

umidabektoshev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15704163>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Germaniya Respublikasining hunarmandchilik sohasini rivojlantirishdagi ilg'or tajribasi o'rganiladi. Jumladan, dual ta'lim tizimi, hunarmandlar palatalari faoliyati, davlat tomonidan ko'rsatiladigan iqtisodiy rag'batlantirish choralari va zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi ko'rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, Germaniya tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: hunarmandchilik, Germaniya tajribasi, dual ta'lim, palatalar, raqamlashtirish, O'zbekiston.

Аннотация. В данной статье изучается передовой опыт Федеративной Республики Германия в развитии ремесленного сектора. В частности, рассматриваются дуальная система образования, деятельность ремесленных палат, меры экономического стимулирования со стороны государства и внедрение современных технологий. Также даны предложения и рекомендации по применению германского опыта в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: ремесленничество, опыт Германии, дуальное обучение, ремесленные палаты, цифровизация, Узбекистан.

Annotation. This article explores the advanced experience of the Federal Republic of Germany in developing the handicraft sector. It examines the dual education system, the activities of craft chambers, government economic incentives, and the implementation of modern technologies. The article also provides suggestions and recommendations for applying Germany's experience in the context of Uzbekistan.

Keywords: handicraft, German experience, dual education, craft chambers, digitalization, Uzbekistan.

Kirish

Hunarmandchilik har qanday jamiyatda iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu soha nafaqat moddiy madaniyat va milliy merosni saqlash, balki yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy resurslardan unumli foydalanish va eksport salohiyatini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Germaniya – dunyoda hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribaga ega davlatlardan biri sanaladi. Ularning tizimli yondashuvi O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-77-son qarorlari qabul qilindi, ushbu qarorlar mamlakatimiz aholisini ish bilan band qilish, ularning loyihalarini moliyalashtirish, hunarmandchilik sohasini rivojlantirish va hunarmandlarimiz faoliyatini qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar, yillik 14 foiz stavkada "Hunarmand" uyushmasi a'zolariga ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun asbob-uskuna, ehtiyot qismlar va xom-ashyo materiallarni xarid qilish, hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari, "usta-shogird" maktablarini tashkil etish, uy-muzeylar va ustaxonalar qurish yoki shu maqsadlarda bino va inshootlar sotib olish uchun 3 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag'larini to'ldirish uchun 18 oygacha muddatga ajratilishi


nazarda tutilganligi, xalq hunarmandchiligi sohasida ijobiy o'zgarishlarning oshib borayotganligini ko'rsatmoqda. Xalq hunarmandchiligini raqamlashtirish bu zamonaviy raqamli hunarmandchilikning rivojlanishini bugungi kunda kuzatilishi mumkin bo'lgan shaklidir. Mintaqada xalq hunarmandchiligi rivojlanishini trend modellar asosida baholash va xalq hunarmandchiligini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan holatlar hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

Germaniyada har bir federal yerda faoliyat yurituvchi Handwerkskammer – Hunarmandlar palatalari mavjud. Germaniyada geografik prinsipga (Yerlar bo'yicha) ko'ra tashkil etilgan 60dan ortiq hunarmandchilik palatalari mavjud bo'lib, ular o'z hududlarida hunarmandchilik korxonalari faoliyatini huquqiy tomondan nazorat qilib turadilar. Germaniyada hunarmandchilik palatalari funksiyalari quyidagilardan iborat:

- ustalar va shogirdlarning ro'yhatini tuzish;
- hunarmandchilik korxonalari reestrini yuritish;
- huquqiy normalar va raqobat kurashi qoidalarini shakllantirish;
- ekspertiza qilish (sertifikatlashtirish, litsenziya va h.k.);
- umumiy iqtisodiy muommolarni hal etish, texnik maslahatlar berish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini hal etishda qatnashish;
- radio, televideniya va matbuotni jalb qilgan holda axborotlar bilan ta'minlash;
- hududlar bo'yicha hunarmandlarni oqilona joylashtirish sxemasini ishlab chiqish, qurilish, yuklarni tashishni rejalashtirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;
- bojxona faoliyati;
- kasbga o'qitish va dasturlarni ishlab chiqish.

Hunarmandchilikka berilayotgan e'tibor, yaratilgan shart-sharoitlar bu sohaning yetarli darajada rivojlanayotganini ko'rsatadi. Germaniyada hunarmandchilik tarmog'inining yillik aylanmasi 2006-yilda 482,5milliard yevroni tshkil etgan bo'lsa, 2017-yilda 581milliard yevron tashkil etgan.



2017-yilda Markaziy nemis hunarmandlari assotsiatsiyasi bilan usta-shogird maktablarida o'qitish uchun tuziladigan shartnomala soni ham oshgan, jumladan, 2017-yil

dekabr oyining oxirigacha 139000 ta shartnoma imzolangan. SSP bilan esa 2252ta yangi shartnomalar imzolangan, oldingi yillar bilan solishtirganda, bu ko'rsatkich 1,6% ko'pdir. Bu ko'rsatkich Germaniyada hunarmandchilikka naqadar katta e'tibor berilishidan dalolat beradi. Bugungi kunga kelib Germaniya hunarmandchiligi yirik bozorga chiqib, yiliga 25–30 mlrd yevroga teng eksportni amalga oshirmoqda.

Germaniyada hunarmandchilikning rivojlanishida dual ta'lim tizimi markaziy o'rin tutadi. Bu tizim nazariy ta'limni kasb-hunar maktablarida, amaliy ko'nikmalarni esa ustaxonalar va korxonalarda berish orqali o'rgatadi. Germaniya hukumati hunarmandlar uchun kreditlar bo'yicha imtiyozlar, subsidiyalar, soliq yengilliklari, raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun grantlar taqdim etadi. So'nggi yillarda Germaniyada hunarmandchilik sohasiga: 3D bosma texnologiyalari, zamonaviy dizayn dasturlari, elektron tijorat vositalari, onlayn marketing va xizmat ko'rsatish tizimlari joriy etilgan.

Mamlakatimizda Germaniya tajribasini qo'llashda taklif va tavsiyalar:

-Germaniyada "Handwerk 4.0" konsepsiyasi orqali ustalar o'z xizmatlarini internet orqali taklif qilishi, buyurtmalarni raqamli boshqarishi mumkin. O'zbekistonda esa "E-Hunarmand" platformasi yaratilib, har bir ustaning sahifasi, ish namunalari, buyurtma olish tizimi yaratilishi va bundan tashqari talabalar va ustalar o'rtasidagi bog'lanishni raqamli shaklda amalga oshiruvchi "Shogird top" kabi mobil ilovalar ishlab chiqilishi lozim.

-O'zbekistonda hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun alohida qonunlar mavjud bo'lsa-da, ularni takomillashtirish, xususan, palatalar vakolatini kengaytirish va ularni ijtimoiy-iqtisodiy muhitga faol jalb qilish lozim.

-Germaniya tajribasidagi dual tizimga mos ravishda, "usta-shogird" an'anaviy tizimini zamonaviy kasb-hunar ta'limi bilan uyg'unlashtirish zarur.

-Hunarmandlar uchun bank kreditlarining foiz stavkalarini pasaytirish; ularga doimiy ravishda subsidiyalar ajratish; elektron tijorat platformalarini yaratish orqali mahsulotlarini kengroq bozorlarga olib chiqishga imkoniyat yaratish lozim.

-O'zbekistonda mahalliy hunarmandlar ishtirokida doimiy ravishda ko'rgazma-yarmarkalar o'tkazish, shuningdek, har bir viloyatda hunarmandlar uchun texnoparklar tashkil etish samaradorlikni oshiradi.

Xulosa

Germaniya tajribasi ko'rsatmoqdaki, mahsulotlar dizayn, sifat va ekologik talablar asosida ishlab chiqarilishi hunarmandchilik sohasi faqat an'anaviy emas, balki zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'un holda rivojlantirilgandagina xalqaro bozorga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrdagi «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-55-son // <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi

PQ-77-son Qarori. // <https://lex.uz/docs/5807559>

3. Bundesministerium für Wirtschaft und Energie (2022). "Handwerk in Deutschland – Zahlen und Fakten". Berlin.
4. German Confederation of Skilled Crafts (ZDH) rasmiy sayti: www.zdh.de
5. Xolov M. (2021). "Davlat-xususiy sherikchilik: nazariya va amaliyot". Toshkent.
6. "O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirish strategiyasi – 2030" loyihasi materiallari.
7. Jalilov A., Xudayberganov T. (2023). "Mahalliy hunarmandchilikni eksportga yo'naltirish strategiyasi". Iqtisodiyot va innovatsiya jurnali, №3.
8. Norqobilova. F. A. International scientific and practical conference // Iqtisodiy erkinlik indeksi hunarmandchilik sohasini rivojlantirishdagi roli (zenodo.org), 2023. – p 255-257